



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,  
13-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish .....	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi .....	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish .....	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar .....	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari .....	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish .....	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi .....	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish .....	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari .....	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari .....	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .....	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .....	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	205
<i>Хоҗаметов Аҗинияз Андриянович</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .....	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	

# TALABALARGA AN'ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIGINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Muxammadova Ozoda Muzrabovna  
Samarqand davlat pedagogika instituti  
"Musiqqa ta'limi" kafedrası kata o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinib, unda an'anaviy xonandalikning mohiyati, janrlari, shuningdek, talabalarda vokal texnika, nafas olish, ovoz hosil qilish, intonatsiya, diksiya va artikulyatsiyani shakllantirishdagi amaliy metodlar yoritilgan. Pedagogik jarayonda tinglash, tahlil qilish va ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamlashning ahamiyati ko'rsatilib, milliy musiqa merosining talabalarga o'rgatilishi orqali ma'naviy-estetik tarbiyani rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy xonandalik, talabalar, pedagogik yondashuvlar, musiqiy ko'nikmalar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, maqom va mumtoz ashulalar, musiqa ta'limi.

**Abstract:** The article analyzes pedagogical approaches used in teaching students traditional vocal performance, explores the essence and genres of traditional vocal art, and examines practical methods for developing students' vocal technique, breathing, voice production, intonation, diction, and articulation. The importance of listening, analysis, and reinforcement of performance skills in the pedagogical process is highlighted, as well as the opportunities to develop spiritual and aesthetic education through teaching students national musical heritage.

**Key words:** traditional vocal performance, students, pedagogical approaches, musical skills, theoretical and practical classes, maqom and classical songs, music education.

**Аннотация:** В статье анализируются педагогические подходы, применяемые при обучении студентов традиционному вокальному исполнительству, раскрываются сущность и жанры традиционного вокального искусства, а также рассматриваются практические методы формирования вокальной техники, дыхания, постановки голоса, интонации, дикции и артикуляции у студентов. Подчеркивается значение слушания, анализа и закрепления исполнительских навыков в педагогическом процессе, а также рассматриваются возможности развития духовно-эстетического воспитания через обучение студентов национальному музыкальному наследию.

**Ключевые слова:** традиционное вокальное исполнительство, студенты, педагогические подходы, музыкальные навыки, теоретические и практические занятия, маком и классические песни, музыкальное образование.

## KIRISH

Musiqa inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni go'zallik olamiga olib kiradi va axloqiy, g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi, unga ma'naviy ozuqa beradi va yosh avlodni ma'naviy barkamol etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda musiqa ta'limini samarali tashkil etish jarayonida o'qituvchilarning roli juda katta. Jahonning ilg'or mamlakatlarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning yangi metodlari va imkoniyatlari bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish va umummilliy qadriyatlar asosida o'zligini anglashni o'rgatish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi [1].

Milliy mumtoz musiqa san'atining, xususan, maqom va ashulachilik janrlarining o'zni bu jarayonda beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda "Maqom san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu sohadagi davlat siyosatini belgilaydi [1]. Shu bilan birga, talaba-yoshlarning musiqa merosimizni chuqur o'rganishi va an'anaviy xonandalik san'ati bo'yicha malakalarini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

An'anaviy xonandalik san'ati turli qismlarga bo'lingan, lekin ular orasida ashulachilik janri o'zining keng tarmoqli va mazmun-mohiyatga ega ekanligi, tuzilish qonuniyatlari hamda turli ijro uslublaridan iboratligi bilan ajralib turadi. An'anaviy xonandalik san'ati o'z mavqeyi, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatidan ikki yirik guruhga – ovoz va so'z bilan bog'liq bo'lgan aytim yo'llari hamda cholg'u orqali ifoda etiluvchi cholg'u yo'llariga bo'linadi <sup>[9]</sup>. Ularning har biri o'z navbatida quyidagi janrlarga tasniflanadi:

1. Mumtoz yalla va ashula – har biri rivojlangan kuy va shakldan, o'ziga xos mazmundan hamda ijro uslubidan iborat;
2. Yirik ashula janri bo'lmish katta ashula faqatgina Farg'ona vodiysida shakllanib, rivojlangan;
3. Dostonlar – xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r va musiqadan iborat uch birlik tamoyili mavjudligi bilan ajralib turadi;
4. Maqomlar – o'z navbatida maqom ashula yo'llari hamda yirik ashula-cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan bo'lib, Buxoro shashmaqomi, Xorazm maqomlari turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kabi maqom turkumlaridan iborat <sup>[3]</sup>.

Cholg'u yo'llari:

- 1) rivojlangan kuy va shakllardan iborat bo'lib, murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi cholg'u kuylari yoki asarlar hamda cholg'u turkumlari;
- 2) maqom cholg'u yo'llari va turkumlari, jumladan, Cho'li Iroq, Mushkiloti Dugoh, Ajam taronalari, dutor maqom turkumlari (Xorazmda), surnay maqom yo'llari – Navo, Chorgoh va boshqalar (Farg'ona-Toshkent);
- 3) mumtoz ashulalarning cholg'u yo'llari (variantlari) va turkumlari, jumladan, Tanovar turkumi, Chorgoh turkumi va boshqalar <sup>[4]</sup>.

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy xonandalik san'ati keng tarmoqli bo'lib, har biri o'zining mazmun-mohiyatiga ega, tuzilish qonuniyatlari va turli ijro uslublaridan iborat. An'anaviy xonandalik san'atining eng yirik tarmog'i maqomlardir.

Maqomlar O'zbekistonning uchta hududida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida esa "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqom yo'llarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan bastakorlar ijodiga mansub ashulalar, "Suvoralar" va "Katta ashulalar" ham mavjud. Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozim <sup>[10]</sup>.

Har bir janr o'ziga xos ijro uslubi, tuzilish qonuniyatlari va mazmun-mohiyatga ega. Ayniqsa, maqomlar O'zbekistondagi uch hududda mavjud bo'lib, ular Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. Maqomlarni ijro etish maxsus tayyorgarlik va keng diapazonli ovozga ega bo'lishni talab qiladi <sup>[11]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarda an'anaviy xonandalik ko'nikmalarini shakllantirish tizimli va uzluksiz o'quv-ijodiy jarayonni talab qiladi. Samarali pedagogik yondashuvlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- vokal texnika va ijro mahorati – ovozni sozlash, nafas olishni boshqarish, sof intonatsiya, diksiya va artikulyatsiya ko'nikmalarini shakllantirish;
- nazariy bilimlar – maqom, ashula janrlari, ularning tuzilishi, mazmuni va tarixiy rivojlanishi bilan tanishtirish;
- amaliy mashg'ulotlar – o'quvchilarga ashula va maqomlarni ijro etish, mohir hofizlar ijrosini tinglash, tahlil va muhokama qilish orqali badiiy didni rivojlantirish;
- ijodiy yondashuv – talabalarda ijro etilayotgan asarlarning badiiy xususiyatlarini anglash, ularni farqlash va ijrochilikda shaxsiy ifodani yaratish imkoniyatini oshirish <sup>[9]</sup>.

Bunday pedagogik jarayon talabalarda milliy musiqa merosini chuqur anglash, estetik va ma'naviy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u bo'lajak musiqa o'qituvchilarini malakali, ijodiy va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek an'anaviy xonandalik ijrochiligi juda qadimiy tarixga ega bo'lib, mamlakatimiz hududidan topilgan turli arxeologik topilmalar og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa ijodi ildizlarining chuqurligidan dalolat beradi [3].

Eng qadimgi quldorlik davlatlari – Xorazm, Sug'diyona, Yunon-Baqriya, Kushon podsholigi davrlarida milliy musiqa madaniyati gullab-yashnagan va u aholining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganligi ko'rinib turadi. Dastlab, xalq og'zaki poetik ijodining namunalarida ajdodlarimizning tabiat haqidagi qadimiy tasavvurlari va tabiatdagi yovuz kuchlarga qarshi kurashlari ifoda etilgan bo'lsa, keyinchalik u insonlarning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasiga aylangan. Vaqt o'tishi bilan qadimiy og'zaki musiqa ijodi kasbiy ko'rinish shakllarini olgan va rivojlangan.

Islom dini O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan an'anaviy xonandalik yanada boyib, Temuriylar saltanati davrida, Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida o'ziga xos og'zaki ijodning yuksak namunalari paydo bo'lgan. Shu davrda bayramona qo'shiqlar, ommaviy tomosha san'ati, dorbozlik va qo'g'irchoqbozlik usulidagi qo'shiq va musiqa asarlari yaratilgan, bu esa xalqimiz ijodkorlik xususiyatlarini namoyon etgan [10].

Natijada, ashula, katta ashula va maqom kabi kasbiy ijrochilik janrlari shakllangan. Shayboniylar hukmdori Ubaydulloxon Hirotdan Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga chaqirtirib, maqom ijrochilari maktabini tashkil etgani va Darvish Ali Changiy tomonidan yozilgan "Risolai musiqi" asari maqomlar va ularning sho'balari, usullari hamda musiqiy nazariyani tizimli o'rganish imkonini bergan. XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro maqomlari "Shashmaqom" nomi bilan atalgan [7].

Xorazm xonligi tarixida XIX asrda Xon Muhammad Rahimxon Soniy xalq musiqasi va maqomlarni asrashga alohida e'tibor qaratgan. U "Feruz" I, II, III ijrolari orqali xalq ichida mashhur bo'lgan va maxsus farmon bilan maqomlarni daxlsiz mulk sifatida himoya qilgan [11].

Shu bilan birga, Qo'qon xonligida XVIII asr o'rtalarida Umarxon hukmdorligi davrida Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari Shashmaqom asosida shakllangan va ustoz sozanda hamda xonandalar tomonidan ijod qilingan [5].

XIX–XX asrlarda an'anaviy xonandalikning yangi iste'dodli ijrochilari yetishib chiqdi. Dastlabki musiqa ta'lim mashg'ulotlari Munavvar Qori, Behbudiy, Avloniy, Hamza kabi namoyondalar tomonidan tashkil etilgan maktablarda olib borilgan. XX asr boshlarida, 1918-yil iyun oyida Turkiston xalq konservatoriyasi ochilishi, Buxoro, Samarqand va Farg'onada musiqa bilim yurtlari faoliyat boshlashi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda muhim qadam bo'lgan.

1850–1900-yillarda mamlakatimizda bir qancha mahoratli hofizlar avlodi yetishib chiqqan: Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Madali hofiz, Matyoqub Harratov va boshqalar. 1930-yillardan keyin uchinchi avlod vakillari – Matpano ota Xudoyberganov, Hojixon Boltayev, Mixail Tolmasov, Yunus Rajabiy, Boboxon va Akmalxon So'fixonov kabi ijrochilar yetishib chiqdi. Shuningdek, bastakorlar – Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'aniyon Toshmatov, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muhammadjon Mirzayev va Muxtojon Murtozoyev yaratgan ashula va katta ashulalar xalqimiz an'anaviy musiqa merosining boy qismiga aylangan [6].

XX asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonim tashabbusi bilan "Ko'k ko'ylak" ansambli tashkil etilib, keyinchalik Urgutda "Beshqarsak", "Moxi Setora", "Munojot", "Gavhar" kabi ansambllar faoliyat boshladi. Shu bilan birga, bolalar uchun folklor va an'anaviy musiqa ansambllari tashkil etilib, xonandalik ijodiyoti rivojining mustahkam poydevori yaratildi. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi musiqa, madaniyat va san'at sohasida tub islohotlarni amalga oshirib, an'anaviy xonandalik ijodiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Sharq musiqasi kafedrasining 1978-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasida tashkil etilishi va 1982-yilda ilk maqom ijrochiligi tanlovining o'tkazilishi kasbiy musiqa san'atiga davlat e'tiborining mustahkam ifodasidir. Tanlov orqali Rahmatjon Qurbonov, Mahmudjon Tojiboyev, Mashrabjon Ermatov, Munojot Yo'licheva va boshqa xonandalar omma e'tiboriga tushdi. Akademik Yunus Rajabiy tomonidan shashmaqom va Toshkent-Farg'ona maqomlari nota yozuviga tushirilishi ham o'zbek an'anaviy kasbiy musiqa ijodiyoti tarixida muhim voqealardan biri bo'lib, 1949-yilda O'zbekiston radiosi qoshida maqomchilar ansamblining tashkil etilishi san'at rivojiga turtki bo'ldi [7].

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy xonandalik san'ati talabalarda nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-estetik rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. U milliy musiqa merosini, she'riy va badiiy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda yoshlarni estetik did va musiqiy savod bilan qurollantiradi. Talabalarda an'anaviy xonandalik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida samarali pedagogik yondashuvlar qo'llanilishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlar tizimli tarzda tashkil etilishi zarur. Shu yo'l bilan bo'lajak musiqa o'qituvchilari milliy san'atimizni davom ettiruvchi, barkamol va ma'naviy yetuk shaxslar sifatida yetishadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantiruvchi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2017-yil, 17-noyabr.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001-yil.
3. Abdullayev R. O'zbek mumtoz musiqasi. – T., Yangi nashr, 2008-yil.
4. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – T.: Yangi nashr, 2008-yil.
5. Ibragimov I. Фергана-Ташкентские макамы. – Т., Издательство "Литература и искусство имени Гафура Гуляма", 2006-г.
6. Rajabov I. Maqomlar. O. Ibrohimov tahririda qayta nashr qilingan. – T., "San'at" nashriyoti, 2006-yil.
7. Yunus Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978-yil.
8. Qudratov I. An'anaviy xonandalik. Darslik. Samarqand, 2022-yil.
9. Muhammato va O. An'anaviy xonandalik: o'quv qo'llanma. Samarqand, 2024-yil.
10. Madrimov B.X. "O'zbek musiqasi tarixi". – T., "Barkamol fayz media", 2018-yil.
11. Qodirov R. O'zbek musiqasi san'ati tarixi. – T., 2015-yil.
12. <https://uz.wikipedia.org/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.